Annotatsiya. Jahon iqtisodiyoti rivojlanish tajribasi asosida sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatini oshirish muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada tibbiy xizmatlar ko'rsatish va ularni moliyalashtirish mexanizmlari, shuningdek, samaradorligini baholashning milliy hamda xorijiy amaliyoti mualliflar tomonidan tahlil qilingan. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi aholining sog'lig'ini ta'minlash barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligini ko'rsatadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilgan islohotlar natijasida davlat va xususiy sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish hamda ularning faoliyatini moliyalashtirishning huquqiy va tashkiliy asoslari shakllantirildi. Tadqiqot davomida tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish va ularning faoliyati samaradorligini baholash bilan bog'liq muammolar aniqlanib, ushbu jarayonlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: tibbiyot muassasalari, tibbiy xizmatlar, moliyalashtirish, samaradorlik, samaradorlikni baholash.

Abstract. The development of private sector participation in the healthcare system, based on global economic development experience, along with improving the culture and quality of medical services provided to the population, contributes to addressing important social challenges. This article analyzes national and international practices in the provision of medical services, as well as mechanisms for financing and evaluating their effectiveness. The experience of developed countries demonstrates that ensuring public health is one of the key factors of sustainable economic growth. As a result of reforms implemented since the early years of independence, a legal and organizational framework for the functioning of both public and private healthcare systems, as well as for financing their activities, has been established. The study identifies key challenges in financing medical institutions and assessing their performance, and proposes measures to improve financing mechanisms and efficiency evaluation.

Key words: medical institutions, medical services, financing, efficiency, efficiency evaluation.

Аннотация. Развитие участия частного сектора в сфере здравоохранения на основе опыта мирового экономического развития, а также повышение культуры и качества медицинского обслуживания населения способствуют решению важных социальных задач. В статье проанализированы национальная и зарубежная практика оказания медицинских услуг, механизмы их финансирования и оценки эффективности. Опыт развитых стран свидетельствует о том, что обеспечение здоровья населения является одним из ключевых факторов устойчивого экономического роста. В результате реформ, реализуемых с первых лет независимости, была сформирована правовая и организационная база функционирования государственной и частной систем здравоохранения, а также финансирования их деятельности. В ходе исследования выявлены основные проблемы финансирования и оценки эффективности медицинских учреждений и разработаны предложения по их совершенствованию.

Ключевые слова: медицинские учреждения, медицинские услуги, финансирование, эффективность, оценка эффективности.



KIRISH

O'zbekiston mustaqillikning o'tgan yillari mobaynida sog'liqni saqlash tizimini boshqarish va moliyalashtirishni optimallashtirish, tibbiyot sohasida xususiy sektor ishtirokini rivojlantirish, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish madaniyati hamda sifatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida bosqichma-bosqich keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlar davlat sog'liqni saqlash tizimiga parallel ravishda xususiy tibbiyot tizimining shakllanishi hamda ularning faoliyatini tashkil etishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarining rivojlanishini ta'minlamogda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, aholining salomatligini ta'minlash va tiklash iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda dunyo boyligining 60 foizi inson kapitali hissasiga to'g'ri kelgan.¹ Shuningdek, "Xalqlar boyligining o'zgarishi – 2018" hisobotida inson kapitali "taraqqiyot drayveri" sifatida e'tirof etilgan [1]. Shu bois ham mamlakatimizda inson salomatligini tiklashga yo'naltirilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirish orqali inson kapitali imkoniyatlaridan unumli foydalanish va iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Biroq amalga oshirilgan islohotlarga qaramasdan, aholining sog'lig'ini saqlash tizimi samaradorligi rivojlangan davlatlar darajasidan hanz pastligicha qolmoqda. Amalda olib borilayotgan islohotlarning tizimlilikiga yetarlicha e'tibor qaratilmagani sababli tibbiyot tizimi tadrijiy rivojlanish darajasiga to'liq erisha olmayapti. Natijada aholining sog'lig'ini saqlash hamda malakali tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi to'liq ta'minlanmay qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid tadqiqotlar asosan tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish masalalariga qaratilgan. Shu bois rossiyalik olimlar N.A. Alekseev, A.I. Vyalkov, A.P. Zabolotskiy, V.A. Kondrashev, L.M. Manukyanlar tomonidan ham tibbiyot muassasalarining faoliyatini tahlil qilishning zamonaviy metodlari va usullarining yetishmasligi ta'kidlangan.

Mahalliy olimlarimiz T. Malikov, N. Xaydarov, O. Olimjonov, M. Abidovlar ishlarida ham tibbiyot muassasalari faoliyati samaradorligini aniqlash va baholash masalalariga kam e'tibor qaratilgan². Shu bois raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiy xizmatlar ko'rsatishni moliyalashtirish hamda ularning samaradorligini baholashni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish masalalari dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi doirasida tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish va ularning samaradorligini baholash bo'yicha ikkinchi darajali va birlamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Ma'lumotlar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), Jahon banki, OECD hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida shakllantirildi. Tadqiqotda tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish hajmi, manbalari, YAIMdagi ulushi, tibbiy xizmatlar qamrovi va natijaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqliklar tahlil qilindi. Tahlil jarayonida taqqoslama tahlil, dinamik qatorlar tahlili, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar, shuningdek, xalqaro benchmarking usullaridan foydalanildi. Moliyalashtirish samaradorligini baholashda "value for money" yondashuvi asosida resurslar taqsimoti va erishilgan natijalar o'rtasidagi mutanosiblikka alohida e'tibor qaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning Nizomida «Sog'liqni saqlash — bu nafaqat kasalliklar va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi, balki jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik holatidir. Sog'liqni saqlashning eng yuqori darajasidan foydalanish har bir insonning irqi, dini, siyosiy qarashlari, iqtisodiy yoki ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, asosiy huquqlaridan biridir. Barcha xalqlarning salomatligi tinchlik va xavfsizlikka erishishning asosiy omili bo'lib, alohida shaxslar va davlatlarning to'liq hamkorligiga bog'liq» ekanligi belgilab qo'yilgan [2].

Olimlar o'z tadqiqotlarida insonlarning sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini turli jihatlardan eng muhim ijtimoiy huquq sifatida baholaydilar. Jumladan, V.P. Bushueva fuqaroning sog'lig'ini bugungi kunda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vositasi sifatida baholaydi [3], B. Toebe esa fuqaroning sog'lig'ini davlatning insonlar oldidagi majburiyati sifatida qarashni tavsiya etgan [4]. N. Kamenskaya fikricha, fuqaroning sog'lig'i insonlar xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi [5].

¹ <https://www.worldbank.org/en/publication/the-changing-wealth-of-nations>

² Маликов Т., Олимжонов О. Молия (дарслик) / Тошкент. Иқтисод-молия. — Тошкент. 2019й., Абидов М.И. Иқтисодиётнинг ривожланишида давлат молиявий назоратининг ўрни ва аҳамияти. "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий электрон журнали. №3, 2017й. июнь.



Yu.T. Xolodova insonlarning sog'ligini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini davlat xavfsizligining asosi sifatida baholashni taklif etgan [6]. N. Matuzov insonlarning sog'ligini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini ijtimoiy qadriyat sifatida baholash zarurligini ta'kidlaydi [7]. Yuqorida qayd etilgan olimlardan farqli ravishda O. Kolotkina insonlarning sog'ligini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini baxt sifatida baholagan [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF–158–son³ Farmoni bilan aholi salomatligini ta'minlash sohasida belgilangan vazifalar, shuningdek, aholini profilaktika qilish, tashxislash, davolash va reabilitatsiya qilish tizimini tubdan takomillashtirish, ularning hayot sifatini yaxshilash, kasalliklarni erta aniqlash, kompleks terapiya qilish va xalqaro standartlarga muvofiq uzoq muddatli kuzatuv olib borish imkonini beradigan qulay, yuqori texnologik va innovatsion tibbiy infratuzilmani yaratish, tibbiyot muassasalarining moddiy–texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan global va milliy strategik tashabbuslar ilgari surilgan [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF–158–son⁴ Farmonida belgilangan maqsadlar qatorida aholining o'rtacha umr davomiyligini oshirish, tibbiyotga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmini 2 barobarga oshirish, aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish, diabet va yurak–qon tomir kasalliklari bilan og'riq bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish, tibbiy yordamga muhtoj aholining murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish, bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash, skrining tekshiruvlari qamrovini kamida 50 foizga oshirish, onalar va bolalar o'limini qisqartirish, tug'uruq o'rinlari sonini oshirish hamda sog'lom bolalikni ta'minlash kabi muhim vazifalar belgilab olingan.

Mazkur ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, tibbiy xizmatlarni rivojlantirish uchun zamonaviy shart–sharoitlar yaratish va sifatli tibbiy yordam olish uchun bemorlarning huquqlarini himoya qilish borasida qonunchilik bazasini doimiy ravishda takomillashtirish, tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish va boshqarish tizimiga ilg'or usullarni joriy etish, sog'liqni saqlash tizimini boshqarishning innovatsion modellarini qo'llash, sohaga investitsiyalarni jalb etishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xususi tibbiyot sektorini rivojlantirish orqali davlatning sog'liqni saqlashga oid xarajatlarini maqbullashtirish, xususi tibbiyot tashkilotlarini byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirilayotgan birlamchi tibbiy yordam tizimiga integratsiya qilish, shuningdek, tibbiyot tizimini moliyalashtirish va boshqarishning ilg'or xorijiy amaliyotini joriy etishni talab qilmoqda.

Mazkur vazifalarni ta'minlash aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati hamda tibbiyot sohasiga yo'naltirilayotgan mablag'larni to'g'ri taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tibbiy muassasalarning iqtisodiy manfaatlarini va ularning moliyaviy–iqtisodiy faoliyati natijalari nafaqat sog'liqni saqlash tizimining asosiy maqsadlariga erishish darajasini, balki davlatning ijtimoiy siyosati samaradorligini ham ifodalaydi. Shu sababli zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini boshqarish yaxshi rivojlangan axborot tizimi, malakali boshqaruv kadrlari hamda jamiyatning turli professional tashkilotlari bilan hamkorlikda doimiy ravishda vaziyatni tahlil qilib borishni talab etadi.

Tibbiy muassasalar faoliyati samaradorligi uni tashkil etishning moliyaviy mexanizmlari va nazoratiga bog'liqdir. Tibbiyot tizimini moliyalashtirish mexanizmlari samaradorligiga baho berish sohani boshqarish tizimini o'rganish hamda faoliyat natijalarini iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilishni taqozo etadi. Sog'liqni saqlash muassasalarining faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tijorat tashkilotlari faoliyatini tahlil qilishdan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Chunki tibbiyot tizimidagi davlat muassasalari maqomining o'ziga xos xususiyatlari, moliyalashtirish manbalarining xilma–xilligi va moliyaviy holatining o'ziga xosligi mavjud.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tibbiyot sohasini moliyalashtirish va mablag'lar samaradorligini oshirish masalalari doirasida sog'liqni saqlash muassasalarining iqtisodiy tahlilini uslubiy jihatdan qo'llab–quvvatlash, uning mazmuni va tuzilishiga yondashuvlar ilmiy manbalarda yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Bu esa sog'liqni saqlash muassasalari faoliyati samaradorligini tahlil qilish kabi dolzarb masalaning hana ilmiy jamoatchilik e'tiboridan chetda qolayotganidan dalolat beradi. Ushbu muassasalar faoliyatini ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan umumshtirilgan usullar asosida iqtisodiy tahlil qilish haqqoniy baholash uchun zarur bo'lgan tahliliy ma'lumotlarning cheklanishiga olib keladi.

Shu bois sog'liqni saqlash muassasalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruvni tashkil etish va ular faoliyatini tahlil qilish metodologiyasini qo'llash manfaatdor foydalanuvchilar — rahbarlar, menejerlar, hamkorlar, sug'urta fondlari va yuqori tashkilotlar uchun samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mavjud resurslardan tejimli foydalanish hamda muassasalarning moliyaviy holatini yaxshilashga qaratilgan chora–tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF–158–son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF–158–son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirilayotgan xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM (GDP)) ulushi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylandi. Xalqaro va milliy tadqiqotlar ushbu xarajatlar aholi salomatligi, mehnat unumdorligi hamda barqaror iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki (WBG) va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tadqiqotlari natijalari mavzuning dolzarbligi va ahamiyati yuqori ekanini tasdiqlaydi [10].

«Salomatlikka oid» hisobotlarda sohaga yo'naltirilgan xarajatlar hayot davomiyligi, onalar va bolalar o'limi hamda aholining umumiy farovonligi bilan chambarchas bog'liq ekani isbotlangan. Shuningdek, sog'liqni saqlash xarajatlari YAIMning o'rtacha 8–10 foizini tashkil etishi qayd etilgan. Tizimga yo'naltirilgan xarajatlari YAIMda yuqori ulushni egallagan davlatlarda (AQSh, Shveytsariya, Isroil, Germaniya) umumiy salomatlik ko'rsatkichlari yaxshiroq ekani kuzatiladi. Tahlillarda sog'liqni saqlash xarajatlarda «value for money» tamoyili yetarlicha qo'llanilmayotgani kamchilik sifatida qayd etilgan va iqtisodiy samaradorlikka asoslangan moliyalashtirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqotlar natijasida «sog'liqni saqlash xarajatlarning miqdori emas, balki ularning samarali taqsimlanishi va boshqarilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega» degan xulosaga kelingan (OECD, 2021).

Shuningdek, sog'liqni saqlashni boshqarish, xarajatlarini optimallashtirish, davlat byudjeti hisobidan ajratiladigan mablag'lardan samarali foydalanish, moliyalashtirish tizimini tahlil qilish, davlat tibbiy sug'urtasi va uning imkoniyatlaridan keng foydalanish, tibbiyot muassasalariga boshqa sug'urta kompaniyalarini jalb etish hamda ularning tajribalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi universitet va ilmiy markazlarida olib borilmoqda. Jumladan, London Iqtisodiyot va Siyosatshunoslik Maktabi (London School of Economics and Political Science, 2020-y.) (Buyuk Britaniya), Avstraliya Milliy Universiteti (Australian National University, 2014-y.) (Avstraliya), Qosim Universiteti (Qassim University, 2024-y.) (Saudiya Arabistoni), Cornell Universiteti (Cornell University, 2021-y.) (AQSh), Malayziya Putra Universiteti (Universiti Putra Malaysia, 2016-y.), Dakka Universiteti (University of Dhaka, 2017-y.) (Bangladesh), Yangi Janubiy Uels Universiteti (University of New South Wales, 2017-y.) (Avstraliya), Shanxay Jiao Tong Universiteti (Shanghai Jiao Tong University, 2017-y.) (Xitoy), Xitoy Jamoat va Jamiyat Tibbiyoti Maktabi (China School of Public and Community Medicine, 2017-y.), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization), UNICEF xalqaro tashkiloti, Markaziy Osiyo Tahlil Tarmog'i (Central Asian Analytical Network, 2020-y.) (Qozog'iston), Shimoliy Kavkaz Federal Universiteti (Rossiya, 2024-y.), N.I. Pirogov nomidagi RMTTU Sog'liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish oliy maktabi (Rossiya, 2022-y.), Ryazan Davlat Radiotexnika Universiteti (Rossiya, 2018-y.) hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish va moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish yo'nalishlarida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlar natijasida sog'liqni saqlashni moliyalashtirish sohasida so'nggi o'n yilliklarda jahon mamlakatlari tomonidan bir qator muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tashabbus va tavsiyalarini qo'llash orqali yashirin to'lovlar (out-of-pocket payments)ni kamaytirish natijasida Tailandda «30 bat dasturi» orqali barcha aholi qatlamlari uchun arzon tibbiy xizmatlar taqdim etilgan. Kosta-Rikada aholining 95 foizi, Ruandada esa 90 foizi milliy sug'urta jamg'armasi bilan qamrab olingan. Davlat va xususiy sug'urta kompaniyalarining integratsiyalashuvi natijasida barqaror moliyalashtirish tizimi shakllantirilib, Germaniyada aholining 90 foizi, Fransiya esa 77 foizi tibbiy xizmat xarajatlarning asosiy qismini davlat, qolgan qismini xususiy sug'urta kompaniyalari orqali moliyalashtirishga erishilgan.

Davlat–xususiy sheriklikning ilg'or usullarini qo'llash, xususiy va davlat kapitali hamda innovatsiyalardan samarali foydalanish natijasida Buyuk Britaniyada (PFI-model), Hindistonda (Ayushman Bharat) va Braziliyada (SUS — Unified Health System) dasturlari orqali aholiga keng qamrovli davlat–xususiy hamkorlik asosidagi tibbiy xizmatlar taklif etilgan. Kanada, Estoniya va Singapurda elektron sog'liqni saqlash tizimini yaratish, uni real vaqt rejimida boshqarish hamda xarajatlarni optimallashtirish orqali jahon yetakchiligi ta'minlangan.

Tibbiy xizmat sifati va ommabopligini oshirish maqsadida sog'liqni saqlash xarajatlarning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi ko'paytirilgan bo'lib, AQShda bu ko'rsatkich 17–18 foizni, Shveysiya, Niderlandiya va Germaniyada esa YAIMning 10–12 foizini tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar natijasida aholining tibbiy xizmatlar bilan qamrovi oshib, tibbiy xizmat sifati kafolatlangan. Turkiya, Hindiston, Janubiy Koreya va Malayziyada tibbiy turizmni rivojlantirish orqali davlat byudjetini qo'llab-quvvatlash, pirovard natijada esa arzon va sifatli tibbiy xizmatlarni taqdim etish hamda sog'liqni saqlashni iqtisodiy drayverga aylantirishga erishilgan.

Xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish asosida O'zbekiston aholisi uchun davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etish, byudjet mablag'lari samaradorligini oshirish maqsadida davolangan holatlarga asoslangan moliyalashtirishni yo'lga qo'yish hamda aholining zarur tibbiy xizmatlardan foydalanishi uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Jahonda aholi uchun qulay tibbiy muhitni shakllantirish, arzon va sifatli xizmatlarni taqdim etish maqsadida sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning samarali yechimlarini topish va o'z-o'zini moliyalashtirish tizimini rag'batlantirish bo'yicha qator ustuvor tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, aholining barcha qatlamlari uchun teng va qulay tibbiy xizmatlar taqdim etish hamda tengsizlikning oldini olish, tibbiy qamrovni kengaytirish



maqsadida moliyalashtirishda adolat tamoyillarini ta'minlash (Xitoy); tibbiyotda resurslarni identifikatsiyalash, birlashtirish, xizmat ko'rsatish usullari va to'lov tizimlari modellarini qayta ko'rib chiqish asosida oilaviy tibbiyot dasturlarini moliyalashtirish strategiyalarini takomillashtirish (Eron); birlamchi tibbiy tizim va shifoxona tarmoqlaridagi moliyaviy nomutanosibliklarni bartaraf etish hamda xarajatlarni qisqartirish maqsadida «Piano di Rientro» rejalarini amalga oshirish (Italiya); tibbiy xizmatlar uchun oldindan to'lov asosidagi moliyalashtirish, ijtimoiy tibbiy sug'urta va aralash moliyalashtirish tizimlari samaradorligini oshirish (Janubiy Afrika); tibbiy texnologiyalarni baholash, texnika parkini yangilash va turli darajadagi tibbiyot muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish (Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari); davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi orqali moliyalashtirish tizimini rivojlantirish (O'zbekiston) ushbu yo'nalishlarning asosiylarini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi tibbiy xizmatlar ko'rsatish va ularni moliyalashtirish mexanizmlari hamda ularning samaradorligini baholash bo'yicha milliy va xorijiy amaliyotni tahlil qilish va uni takomillashtirishga doir ilmiy qarashlarni bayon etishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun empirik tahlil, taqqoslash va sifatli baholashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvlardan foydalanildi. Muammoni o'rganishda xalqaro institutlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy va mahalliy olimlar hamda amaliyotchilarning ko'plab tadqiqotlari korxona va tashkilotlar faoliyatining samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Biroq tibbiyot muassasalari faoliyati samaradorligi, uni baholovchi ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu yo'nalishda xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ayrim tadqiqotlar mavjud. Xususan, Adam Wagstaff Jahon banki ma'lumotlari asosida olib borgan tadqiqotlarida aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar (out-of-pocket payments) yuqori bo'lgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi oshib borishini isbotlagan. Shu munosabat bilan olim sug'urta va davlat kafolatlangan xizmatlar paketini kengaytirishni taklif etadi (Wagstaff, 2018).

Joseph Kutzin tadqiqotlarida moliyalashtirish tizimini sog'liqni saqlash tizimining "yadrosi" sifatida baholab, uning noto'g'ri tashkil etilishi butun tizim samaradorligini izdan chiqarishini ta'kidlaydi. U sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni aholining moliyaviy himoyasini ta'minlash, resurslarni samarali taqsimlash va xizmatlar sifati bilan uzviy bog'liq tizim sifatida talqin etadi. Olimning ta'kidlashicha, "moliyalashtirish siyosati noto'g'ri shakllantirilganda, tibbiy xizmatlar sifati pasayishi va ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkin". Biroq olim moliyalashtirish funksiyalarini (resurslarni yig'ish, mablag'larni birlashtirish, strategik xarid) aniq ajratib bergan bo'lsa-da, amaliy modellar mamlakatlar kesimida yetarlicha detallashtirilmagan (Kutzin, 2008).

David Evans Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari asosida olib borgan tadqiqotlarida an'anaviy xarajatlarga asoslangan byudjetlashtirish — "input-based budgeting" tizimi asosiy kamchilik sifatida ko'rsatilgan bo'lib, bunday yondashuv muassasalarni natijaga emas, balki xarajatlarni o'zlashtirishga yo'naltirishi aniqlangan. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, sog'liqni saqlash xarajatlarning 20–40 foizi samarasiz sarflanadi (Evans et al., 2010).

Shuningdek, mavzuga oid adabiyotlarni o'rganishlarimiz Kenneth Arrow tadqiqotlarida davlat aralashuvi jarayonida sohaga mablag' ajratishda amaliy moliyalashtirish mexanizmlari yetarli darajada taklif etilmaganini ko'rsatadi (Arrow, 1963). Michael Porter esa aniq qiymatga asoslangan tibbiyot — "value-based healthcare" konsepsiyasini ilgari surib, moliyalashtirishni natija va qiymat bilan bog'lashni taklif etgan hamda sifat va xarajat o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bergan. Biroq u past daromadli mamlakatlar uchun ushbu yondashuvni moslashtirish murakkabligi va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlariga yetarli baho bermagan (Porter, 2010).

Yevropa davlatlari misolida kafolatlangan xizmatlar paketi doirasida DRG (Diagnosis Related Groups) tizimini joriy etish natijasida statsionar muassasalarda xarajatlarni samaradorligi oshgani aniqlangan. Shu bilan birga, DRG tizimi noto'g'ri qo'llanilganda xizmatlar sifati pasayishi va xizmatlarni sun'iy ravishda ko'paytirish xavfi mavjudligi ta'kidlanadi (Busse et al., 2011).

Peter C. Smith (Buyuk Britaniya) davlat byudjeti mablag'larining natijaga yo'naltirilmagan holda taqsimlanishini asosiy muammo sifatida ko'rsatib, natijaga asoslangan byudjetlashtirish (output-based budgeting) tizimi orqali mablag'lar va erishilgan natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish zarurligini asoslaydi. Biroq olim natijalarni o'lchash indikatorlarini tanlash mexanizmlarini aniq tavsiya etmagan (Smith, 2012).

Mahalliy olimlar T. Malikov, N. Xaydarov, O. Olimjonov va M. Abidovlarning [11] ilmiy ishlari asosan sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ularda tibbiyot muassasalari faoliyati samaradorligini aniqlash va baholash masalalariga yetarli e'tibor qaratilmagan.

S. Karabayev sog'liqni saqlash sohasida davlat–xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni takomillashtirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida o'tkazilgan ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, davlat–xususiy sheriklik mexanizmlari samaradorligiga birinchi navbatda ta'sir etuvchi omillar sifatida



huquqiy baza va siyosiy barqarorlikni e'tirof etadi [12]. Biroq olim mamlakat iqtisodiy rivojlanish modelining davlat-xususiy sheriklik samaradorligini ta'minlashdagi rolga yetarli e'tibor qaratmagan.

Yuqorida qayd etilgan holatlar sog'liqni saqlash tizimining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish, tibbiy xizmatlar tarkibi va ularning qiymatini aniqlash hamda samaradorlikni baholovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Mavzu bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- sog'liqni saqlash tizimining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- tibbiy xizmatlar tarkibi va ularning qiymatini aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- tibbiy xizmatlar va ajratilgan mablag'lar samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish;
- tibbiy xizmatlar va ajratilgan mablag'lar samaradorligini tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni. Lex.uz.
2. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey (eds.). The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. DOI: 10.1596/978-1-4648-1046-6.
3. Устав ВОЗ. Основные документы. – 2005 г.
4. Бушуева В. П. Конституционное право граждан на охрану здоровья и медицинскую помощь в Российской Федерации на современном этапе : автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – 2006 г.
5. Каменская Н. А. Конституционное право на охрану здоровья и медицинскую помощь: современные гарантии обеспечения, принципы реализации и механизмы защиты : дисс. – 2011 г. – С. 4.
6. Холодова Т. Ю. Конституционно-правовое обеспечение прав граждан на охрану здоровья и медицинскую помощь в Российской Федерации : автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2007 г. – С. 26.
7. Матузов Н. И. Актуальные проблемы теории права. – Саратов: Саратовская государственная академия права, 2003 г. – С. 439.
8. Колоткина О. А. Право личности на безопасность: понятие и механизмы обеспечения в РФ : теоретико-правовое исследование : дисс. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2009 г. – С. 19.
9. Toebe B. The right to health as a human right in international law // Refugee Survey Quarterly. – 2001-y. – Т. 20. – № 3.
10. Glover L., Woods M. International Profiles of Health Care Systems. London School of Economics, 2020-y. International Profiles of Health Care Systems 2014: Australia, Canada, Denmark, England, France, Germany, Iceland, Italy, Japan, the Netherlands, New Zealand, Norway, Sweden, Switzerland, and the United States. Asuming P. O., Kim H. B., Sim A. Selection and Behavioral Responses of Health Insurance Subsidies in the Long Run: Evidence from a Field Experiment in Ghana. DOI: 10.48550/2105.00617.
11. Malikov T., Olimjonov O. Moliya (darslik). – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019-y.; Abidov M. I. Iqtisodiyotning rivojlanishida davlat moliyaviy nazoratining o'rni va ahamiyati // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. – № 3. – 2017-y. iyun.
12. Karabayev S. A. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishga ta'sir etuvchi omillar // «Raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda fan va texnologiyalarning zamonaviy tendensiyalari hamda istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – 2025-yil 24–25-aprel. – 187–189-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
